

CHET TILINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI

Norboyev O‘ktam Safarboyevich

*Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Email: norboyevuktam1982@gmail.com

Tel: +998 93 922 87 32

ORCID: 0009-0002-6809-1191

Annotatsiya: *Maqolada dars jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borish. O‘qituvchi talabalarni kasbiy faoliyatini mahoratli tarzda o‘tkazish xususida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Talaba, o‘qituvchi, dars, pedagogik texnologiya, interfaol usullar.*

Kirish. Oliy o‘quv yurtlarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda chet tilining o‘rni beqiyosdir. Til o‘rganishdan asosiy maqsad, talabalarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini hosil qilishdir. Bu maqsadning ro‘yobga chiqishida zamonaviy pedagogik texnologiyalar juda qo‘l keladi. Pedagogik texnologiya – bu o‘quv (dars) jarayonini harakatlantiruvchi kuch yoki oldindan belgilab qo‘yilgan aniq maqsad yo‘lida o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi ta‘limda yakuniy natija majmui hisoblanadi. Bugungi kunda ta‘lim berishda xususan, chet tilini o‘rganishda yangi texnologiya elementi bo‘lgan interfaol usullardan keng foydalilmoqda. Bu ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarda yaxshi samara beradi. Interfaol usullardan qay birini qo‘llash va qay darajada qo‘llash o‘qituvchining mahoraqtiga bevosita bog‘liqdir.

Asosiy qism. Interfaol usullarni qo‘llovchi o‘qituvchi talabalarning bilim saviyasini va ularning nimaga qodir yoki qodir emasligini e‘tiborga olmog‘i kerak.

“Aqliy hujum”, “Dumaloq stol”, “Tadbirkorlik o‘yini”, “Zanjir”, “Kim chaqqon” singari no‘naviy usullardan samarali foydalanish mumkin. “Dumaloq stol” usuli. Davraga topshiriq yozilgan qog‘oz qo‘yiladi. Masalan, “Do‘stingizning sifatlarini yozib bering”. Har bir talaba savolga o‘z javob variantini yozadi va sherigiga uzatadi. Hamma o‘z javobini yozadi va keyin muhokama qilinadi, noto‘g‘ri javoblar o‘chirib qo‘yiladi, to‘g‘ri javoblar soniga qarab, talabalar bilimi baholanadi.

Interfaol nima o‘zi? Interfaol bu – o‘qituvchi va talabalar orasida o‘zaro hamkorlik asosida dars samaradorligini oshirish, mustaqil fikr berish ko‘nikmasini shakllantirish, fikr-mulohaza, bahs orqali o‘rganiladi. Qo‘yilgan maqsadga mustaqil, o‘zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, dalil va asoslar orqali fikrini yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa qatnashchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi axborotni o‘zlashtirishda tanqidiy,

tahliliy yondasha oladi. O'qituvchi faqat yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, tashkil qiluvchi vazifasini bajaradi.

Interfaol usulda guruhni kichik guruhchalarga bo'lib ularni quyidagicha nomlash mumkin. "Excellent!", "Marvellous". Maslan "Siz adabiyotni bilasizmi? o'yini. "Who is good at literature?". Bu o'yinda talabalar tomonidan jahon adabiyoti namoyondalarining nomlari va eng mashxur asarlari haqida tasavvurga ega ekanligi tekshiriladi. Asarlar ingliz, nemis, fransuz, rus, o'zbek va jahonning boshqa tillarida yozilgan bo'lishi mumkin. Bu o'yin talabalarning fikrlash tezligi va javob reaksiyasining zudlik bilan amalga oshirishga o'rgatadi. Bu o'yin til strukturalaridan ingliz tilidagi passiv qurilmalarni qaytarishga va faollashtirishga ham xizmat qiladi. O'yinni o'qituvchi boshlaydi va olib boradi. Kichik guruhchalar ballarni ko'paytirish uchun kurashadilar. O'qituvchi asarning nomini inglizcha aytadi va talabalar darxol bu kitobning muallifini aytadilar.

Masalan o'qituvchi "Othello"

Talabalar: was written by W.Shakespeare.

Birinchi bo'lib javob bergan talaba va guruhchaga 1 ball beriladi va o'yin davom ettirilib, keyingi asarga o'tiladi. To'g'ri, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qituvchidan mahorat talab etadi, lekin o'qituvchi o'z o'rnida fani bo'yicha bo'layotgan o'zgarishu yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim.

Mashg'ulotlarni suhbat-savollar asosida tashkil qilish ham til o'rganishda samardorlikni oshiradi. Ta'lim berishning progressive usullariga murojaat qilish har qanday dargohda raqobat muhitini vujudga keltirib, pedagoglarni o'z ustida ishlashga undaydi. Bu esa talabalarning fanlarga qiziqishni kuchaytiribgina qolmasdan, o'zlashtirish darajasini oshirishga, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ilmiy va hayotiy mulohazalar yuritishga o'rgatadi. Mashg'ulotda talabalarning mavzu bo'yicha qanchalik bilimga ega bo'lganini tekshirish uchun turli hil usullarni qo'llash mumkin. Masalan, savol-javoblar, test, tekshiruv diktanti, intellektual o'yinlar, rebuslarni yechish, darsda muayyan rollarni ijro etish kabi usullardan foydalanish o'rinli bo'ladi.

Hulosa. Noan'anaviy usullardan foydalanib mashg'ulot o'tilganda, auditoriyada ishchanlik kayfiyati hukm suradi, o'quv materialni aniqroq anglashiladi, muhimi xotirada uzoq saqlanib qoladi. O'qituvchi mashg'ulotlarda qo'llaydigan metodik usullarni tez-tez almashtirib turish kerak, shunda talabalarning darsga qiziqishi yanada ortib boradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyani joriy etish bo'yicha interfaol usulida o'tkaziladigan har bir mashg'ulot o'zining ijobiy natijasini berishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Mirziyoyev Sh.M.** Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy mahoratini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-4947-son Farmon. – Toshkent, 2017.
2. **Azizxo'jayeva N.N.** Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2003.
3. **Sayidahmedov N.** Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Kasb-hunar ta'limi, 2003.
4. **Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A.** Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: Iste'dod, 2008.
5. **Yoldoshev J.G'., Usmonov S.A.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
6. **Passov E.I.** Communicative Method of Teaching Foreign Language Speaking. – Moscow: Prosveshenie, 1991.
7. **Richards, J. C., & Rodgers, T. S.** Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
8. **Scrivener, J.** Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching. – Macmillan Education, 2011.
9. **Larsen-Freeman, D.** Techniques and Principles in Language Teaching. – Oxford University Press, 2000.
10. **Tolipov O'Q., Usmonboyeva M.** Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.